

Şuradan iletildi:

 BuxDU.UZ fakultet xabarlari va yangiliklari...

[https://teletype.in/@muhammadamin-91893/YeF6D0w\\_1jJ](https://teletype.in/@muhammadamin-91893/YeF6D0w_1jJ)

## Teletype

**“Matnshunoslik va adabiy  
manbashunoslik” ta’lim  
yo’nalishi 1-bosqich  
magistrantlari uchun “Adabiyot**

Muhammadamin  
April 19th, 2025

**“Matnshunoslik va adabiy  
manbashunoslik” ta’lim yo’nalishi  
1-bosqich magistrantlari uchun “Adabiyot  
va san’at muzeyi”ning qo’lyozmalar...**

Joriy yilning 18-aprel kuni Matnshunoslik  
va adabiy manbashunoslik ta’lim  
yo’nalishi 1-bosqich magistrantlarida  
mutaxassislik fanlaridan...

 **ANLIK GÖRÜNÜM**

 255 Muhammadamin, 11:11

teletype

○ Teletype

Войти



Muhammadamin

@muhammadamin-91893

Подписаться

19 апреля

**“Matnshunoslik va adabiy  
manbashunoslik” ta’lim  
yo’nalishi 1-bosqich  
magistrantlari uchun  
“Adabiyot va san’at  
muzeyi”ning qo’lyozmalar  
fondida sayyor dars**





teletype

O Teletype

Войти

Joriy yilning **18-aprel** kuni **Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik** ta’lim yo’nalishi 1-bosqich magistrantlarida mutaxassislik fanlaridan hisoblangan **“Xattotlik va kitobat san’ati” va “Matnshunoslik nazariyasi”** fanlaridan **“Adabiyot va san’at muzeyi”ning qo’lyozmalar fondida sayyor** dars o’tkazildi. Sayyor dars o’zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori Amonova Zilola Qodirovna tomonidan o’tkazildi.


Sayyor dars mavzusi “So’fi Olloyor asarlarining qo’lyozma va toshbosma nusxalari” bo’lib, unda So’fi Olloyor asarlarining qo’lyozma va toshbosma variantlarining yaratilish tarixi, bir-biridan farqi va ularni o’rganishning ahamiyati haqida batafsil ma’lumotlar berildi. Darsda forsiy va turkiy tilda yozilgan manbalar, jumladan, Alisher Navoiyning Devoni (XIX asrda ko’chirilgan), “Mahbub ul qulub” (Qo’qon toshbosmasi) Qur’oni Karim tafsiri, bir qancha qit’alar (muqattaotlar) bilan ham tanishildi.



teletype

O Teletype

Войти



Arab harflariga husn kiritish va ularni tobora go'zallashtirishga bo'lgan intilish natijasida bu yozuv san'at darajasiga ko'tarilgan. Mazkur holat arab yozuvining dunyo yozuvlaridan farqli jihatlaridan biridir. Bu san'at qadim davrlardan beri husnixat (kalligrafiya) nomi bilan shuhrat qozongan. Talabalar sayyor dars davomida arab yozuvining grafik asoslari bir xil bo'lishiga qaramasdan harflar shakl jihatdan turli uslublarda taraqqiy etganligiga amin bo'ldilar.

